

Andijon mashinasozlik institutda “Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusida 2-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan “MechaUz-0‘zbekistonda Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta’lim yo‘nalishini innovatsion g‘oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish” loyihasi yakuni oldidan o‘tkazilgan anjumanda mamlakatimiz hamda Yevropaning nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan 50 ga yaqin professor-o‘qituvchilar, shu jumladan Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti rektori va professor-o‘qituvchilari ham eshtirok etdi.

Anjumanning ochilish marosimida institut rektori Umid Turdialiyev nutq so‘zlab, so‘nggi yillarda mexatronika va robototexnika ta’lim yo‘nalishini milliy ustuvorliklarga asoslangan va oliy ta’limda innovatsion g‘oyalar va raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishga e’tiborga qaratilayotganini bildirib, ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi.

Kunning ikkinchi yarmida ishtirokchilar sho‘balarga bo‘linib, ilmiy izlanishlar samarasini tahlil qilishib, erishilgan yutuqlar va yechimini kutayotgan masalalar xususida munozaralar o‘tkazib, qator dolzarb vazifalarni muhokama etishdi.

Shuningdek, tadbir doirasida universitet mehmonlari universitetning laboratoriya bazasi bilan tanishdilar, shundan

so'ng tadbir mehmonlari uchun UzAuto Motors avtomobil zavodiga tashrif tashkil etildi.











